O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYAT
NAVBAHOR TUMANI HOKIMINING

QARORI

210200, Navbahor t., Bobursho‘h k 4, tel: (79) 562-15-82, 562-11-84, 562-14-76,
e-mail: navbahor@nv.uz, info@navbahor.uz

2022 - yil 6 - oktabr 201-5-73-Q/22 Navbahor tuman hokimligi

Navbahor tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga svetaforlarni o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Navbahor tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq svetaforlar o‘rnatilsin.

2. Navbahor tuman “Yo‘llardan foydalanish” UK (D.Pirnazarov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (Z.Qudratov)ga tumanda mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq svetaforlarni o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

4. Tuman IIB YHXB (O`.Xalimov)ga mazkur svetaforlar o‘rnatilishini hamda tuman hududida transport vositalari harakatini tartibga solinishini nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror “Navbahor tongi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Xudoyqulov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.O`roqov**

Navbahor tuman hokimining
2022 yil 6 oktabrdagi
201-5-73-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanda mavjud avtobil yo‘llarga o‘rnatiladigan svetafor bo‘yicha

MA’LUMOT

T/r	Ko‘cha nomi	Joylashtirish joyi	Soni
1	Markaziy Beshrabot	4R48 avtomobil yo’lining 192 km PK6 o‘ng va chap tomon	1
2	Markaziy Beshrabot	4R48 avtomobil yo’lining 192 km PK9 o‘ng va chap tomon	1